




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

**МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
MINISTRY OF DEFENSE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**



**“SOHIBQIRON AMIR TEMURNING JAHON
VA MILLIY HARBIY SAN’AT RIVOJIGA
QO’SHEGAN HISSASI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYA
TO‘PLAMI**

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ
“ВКЛАД ВЕЛИКОГО ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТИМУРА В РАЗВИТИЕ
МИРОВОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЕННОГО ИСККУСТВА”**

03.04.2024

**“THE CONTRIBUTION OF MASTER AMIR TEMUR TO THE DEVELOPMENT
OF WORLD AND NATIONAL MILITARY ART”**


**COLLECTION OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODOICAL
CONFERENCE ON THE SUBJECT**

Chirchiq shahri

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
МИНИСТЕРСТВО ОБОРОНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

CHIRCHIQ OLIY TANK QO‘MONDONLIK
MUHANDISLIK BILIM YURTI
ЧИРЧИКСКОЕ ВЫСШЕЕ ТАНКОВОЕ КОМАНДНО ИНЖЕНЕРНОЕ УЧИЛИЩЕ

XALQARO AMIR TEMUR XAYRIYA JAMOAT FONDI
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОБЩЕСТВЕННЫЙ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫЙ
ФОНД АМИРА ТЕМУРА



“SOHIBQIRON AMIR TEMURNING JAHON VA MILLIY
HARBIY SAN‘AT RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-USLUBIY KONFERENSIYA

T O ‘ P L A M I

2024-yil 3-aprel

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ
“ВКЛАД ВЕЛИКОГО ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТИМУРА В РАЗВИТИЕ
МИРОВОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЕННОГО ИСКУССТВА”

“THE CONTRIBUTION OF MASTER AMIR TEMUR TO THE DEVELOPMENT OF
WORLD AND NATIONAL MILITARY ART”
COLLECTION OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL CONFERENCE
ON THE SUBJECT

2024 yil

qo'riqlagan. Bundan tashqari otliq jangchilardan aloqachilar sifatida hamda qit'alararo savdo karvonlarini qo'riqlashda ham foydalanilgan.



Otning anjomlari ham suvoriyning va ayni vaqtda otning ham harakatlari uchun halal bermaydigan holda tashkil etilgan. Otning sag'risi yo'l-yo'l rangli mato bilan yopilgan, egar uncha chuqur bo'lmagan.

Amir va mingboshilarning otlari bo'yinlariga qo'tos dumidan tayyorlangan shokila osib qo'yilgan. Otning dumi esa xavfsizligi uchun bog'lab qo'yilgan. Yuqori darajadagi otliqlarning otlari bo'yniga tasma bilan bog'lab qo'yilgan jul-yopinchiqlar bilan yopilgan. Ular matodan, charmdan tayyorlanib, oltin suvi yuritilgan temir to'qalar va shokilalar bilan bezatilgan. Otning tumshug'iga ham oltin suvi yuritilgan suvliqlar taqilgan. Otlar ham metall xalqalardan to'qilgan maxsus sovutlar bilan himoyalangan. Bu yopinchiqlar yevropanikiga o'xshasada, ulardan o'zining hashamdorligi bilan ajralib turgan. Piyoda jangchilar qo'shinining uncha ko'p bo'lmagan qismini tashkil qilib, shahar va qishloq aholisidan shakllantirilgan.

EGAR

Bu anjomlarning eng asosiylaridan biri egar bo'lib, u chavandozning ot ustida uzoq o'tirishini ta'minlashi uchun qulay bo'lishi kerak bo'lgan. Markaziy Osiyoda qadimdan egarni yog'ochdan tayyorlanib, unda an'anaviy

yoysimon qoshi bo'lgan va bu jang vaqtida jilovni ilib qo'yib, jangchining qo'lini o'q-yoy otish uchun yoki qilich ishlatish uchun bo'shatib bergan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar davlat muzeyi fondidan.



AMIR TEMURNING HARBIY YURUSHLARI VA SAN'ATI

D.D. Sharifov

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: F.I. Ilmurodova

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda Amir Temurning harbiy yurushlari va harbiy taktikalari, qanday qilib ulkan imperiyaga asos solganligi boshqarganligi haqida.

Kalit so'zlar: Burung'or, juvang'or, manglay, "Loy janggi", Toshkent, Xorazm, Eron, Rus, Kavkaz, Qunduzcha, Oltin O'rda.

Amir Temur Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashxur sarkarda sifatida e'tirof etilgan buyuk siymodir. Afsuski, Amir Temur nomi mustamlakachilik davrida inkor etilib, avlodlar nazaridan chetga surilib kelingan edi. Biroq o'z zamonasida o'zbek davlatchiligini qayta tiklagan, uni yuksak rivojlanish pog'onasiga ko'targan, jahonga shuxrat taratgan Amir Temurning tarixiy xizmatini jahon afkor ommasi nazaridan yashirish, uni qatag'onlik zanjirida ushlab turish vaqti o'tdi. Milliy istiqlol tufayli o'z ona tariximizni xolisona yoritish, tarixiy haqiqatni qaror toptirish barobarida Amir Temur bobomizning nomini, nuroniy qiyofasini tiklash baxtiga muyassar bo'ldik. Sohibqiron Amir Temur o'zining 35 yillik hukimronligi davrida yurtining tinchligi va osoyishtaligi uchun o'z davrining qudratli hukmdorlariga qarshi kurashishga tayyor turgan. Temur harbiy yurushlar davomida dushmanlariga tinim bermagan va bu uning g'alabalarida katta rol o'ynagan.

1361-yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib ikki hokim birlashgan holda, mug'ul xonlariga qarshilik ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar. Temur hayotida ro'y bergan va bir umrga unga tan jarohatini muhrlagan voqea 1362-yilda Seyistonda bo'lib o'tgan. Amir Temur jang vaqtida o'ng qulining tirsagidan va o'ng oyog'idan kamon o'qi tegishidan qattiq jarohatlanadi. Tug'luq Temur o'limidan so'ng, 1363-yilda Movarounnahr tuprog'idan haydalgan mo'g'ul xoni Ilyosxo'ja yangidan katta lashkar bilan avvagi mulklarini egallab olish maqsadida Movarounnahr tomon harakat qila boshlaydi. Mug'ul xoni ayniqsa o'zining raqiblariga nisbatan qahr kayfiyatida ekanligi ham ma'lum edi. 1363-1364-yillarda Temur va Husayn mug'ullarni uch marotaba mag'lubiyatga uchratishdi. Temur va Husayn bo'lg'usi qaqshatqich to'qnashuvga imkon boricha harbiy kuchlarni yig'ishdi. Tarixda " Loy jangi " nomi bilan kirgan mazkur jang Chinoz bilan Toshkent o'rtasida 1365-yilning 22-may kuni bo'lgan. Jangda Amir Temur Husaynning sust va layoqatsizligi sabali mag'lubiyatga uchraydi va Samarqandga qaytib ketadi.[1]. Amir Temur Xorazmni uzil-kesil bosib olish uchun jami besh marotama yurush qilishga majbur bo'ladi va nihoyat 1388-yilda to'liq bosib oladi. 1388-yili Temur Urganchni egallab Sulaymonni va So'fiylar sulolasini yo'qotdi, Urganch aholisini Samarqandga ko'chiradi. 1391-yili Temur shaharni tiklashni buyurdi, ammo faqat bitta dahani tiklash mumkin bo'ldi xolos. Shunday qilib 1390-yili O'rta Osiyoning butun hududi Temurning qo'l ostida birlashdi. 1389, 1391 va 1394-95-yillari Temur To'xtamishga qarshi uch marta yurush qildi, ora-orada



Eron, Kavkaz, Rusning janubiy chegaralariga qo'shin tortib to'rdi. 1391-yili Temur 200 ming kishilik qo'shin bilan hozirgi Qozog'iston cho'llariga yo'l oldi. 18-iyun kuni u hozirgi Samara va Chistopl shaharlari orasidagi Qunduzcha degan joyda To'xtamishni tor-mor keltiradi. To'xtamish 1395-yili Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi vodiysida ham mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng Temur poytaxt Saroy Berkani bosib oldi, taladi va o't quyadi moddiy boyliklarni o'z yurtiga olib ketadi. Saroyning 1395-yildagi halokati 1380-yildan keying yakunlovchi zarba bo'ladi. Shundan so'ng Oltin O'rda o'zini o'nglay olmadi. Zamondoshlar Temurning Rus uchun bu xizmatini baholay olishmadi, rus yilnomachilari Janubiy Rusning bir qancha shaharlarini vayron qilgani uchungina u haqida nihoyatda salbiy fikr bildirishadi.[2]. Amir Temur va uning avlodlari harbiy yurishlarga ko'proq kuklam, yoz va kuz mavsumlarida o'tlanishni ma'qul bilganlar. Safar qoidasiga ko'ra, har bir sarkarda o'z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo'linmalari bilan yasol-jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo'shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to'silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo'linmalar tomonidan qo'riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, kismning o'z paroli-o'ron belgilangan. Armiya safar chog'ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan: Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost), undan keyin mang'lay (hiravul)(avangard), barang'ar, juvang'ar, qo'l(markaz), chag'davul (aryergard) yurgan. Qo'shin ketidan peshmapesh kelgan. Oliy bosh qo'mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo'shin qismlarini joylashtirishga qulay bo'lishi talab qilingan. Jang maydonining suvga yaqin bo'lishi hamda jang vaqtida kuyosh nurining askarlar ko'ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug'lar bilan bezatilgan oliy qo'mondon borgohi balandlikka o'rnatilgan. U yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo'shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to'qnashuvni ayg'oqchilik bilan mashg'ul bo'lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so'ng o'ng va chap qanot ilg'or qismlari-barang'ar xiravuli va juvang'ar hiravuli madadida asosiy ilg'or qism-mang'lay jangga kirgan. Mang'lay ortidan barang'ar hamda juvang'arning qolgan 2 bo'lagi-chapavul va shag'avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni Mag'lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo'mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo'l)(g'o'l) hal qiluvchi hujumga tashlangan: vdravul, qaravul, manglay (xuravul). Sohibkiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo'lgan: qo'shin markazi 40 bo'luk-polika taqsimlangan va Oliy bosh qo'mondonga itoat qilgan. Ushbu bo'luklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo'luki safning 1qatorida, qolgan 28 bo'luki 2 va 3qatorlarda joylashgan. Qirq bo'lukning o'ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so'l tarafi oldida qarindoshlar va itshfoqchilar qismlari saf tortgan. 2qatorning barang'arida 6 bo'luk o'z ilg'ori-hiravul bilan o'rin egallagan. Ayni shu miqsordagi bo'luk va hiravulga juvanga ham ega bo'lgan. 2-qator barang'ari va juvang'ari oldida yuqoridagi tartibda 1qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg'or mang'lay



(yoki hiravuli buzurg) harakatda bo'lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 bo'luk armiyani qo'qqisdan bo'ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo'lgan.[3]. Harbiy yurush paytida oldinda xabarchilar, ular orasidan yasovul bo'linmasi, undan keyinroqda manglay-avangard qism borardi. Amir Temur qo'shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o'ng-burong'or, chap-juvong'or, qanotlaridan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida qo'shimcha qo'riqchi manglay-avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi askariy qo'shilmalar-qanbullar bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yeti qism-qo'llardan iborat edi. Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shinni yeti qo'lga-qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozgan. Bu qo'llar urush vaqtida mustaqil harakat qilgan, ular qo'shin bo'limmalar qo'mondoniga bo'ysungan.[4].

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo'lidagi ichki va tashqi siyosatida qo'shinga tayangan. Amir Temur ko'pincha har bir yurushida yangicha taktika o'ylab topgan. Jang vaqtida qanotlarni dushman hujumidan muhofaza qilib dushman qo'shinining yon tomonlaridan aylanib o'tib zarba berishgan. Amir Temur qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatda bo'lgan lekin har bir yurushga turki bo'ladigan sabablar bore di. Bu sabablar-o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalaniish, karvon yo'llarini turli yo'l-to'sarlardan, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni bo'ysundirish o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirishdan iborat bo'lgan. Hattoki bir paytlar mo'g'illar bizning yurtimizni bosib olishgan Amir Temur davrida esa 1370-1391-yillarda 7-marta mo'g'ilistonga yurush qilib bosib oladi bizga qarab bo'lib qoladi. Temur qo'shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomalashib borgan. Harbiy yurushlar olib borib o'zining 35 yil hukmronligi davrida ulkan davlatni boshqargan. Amir Temur davlatni boshqarishda quron kitobidan o'rgangan. O'zining „Temur tuzuklari“ kitobini yozgan. Undan birinchi prezindimiz Islom Karimov unga tayanib davlatni boshqargan. Ruslar mo'g'illarga qaram bo'lganida Temur To'xtamishga qarshi yurush olin boradi va uni yengadi ruslarni mo'g'illar zulmida ozod qilsada bizni Rossiya imperiyasi bosib olgach Temurni bizga nato'g'ri talqin qilishadi. Lekin To'xtamishxonning ustidan g'alaba qozonishi Sharqiy Yevropaning emas balki Rus knyazliklarining birlashishlari uchu buyuk ahamiyat kasb etgan. Lekin ular keyinchalik tushunib yetishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R. Xoliqulov, K. G'aniyev, M. Nasrullayev, O'zbekiston Tarixi. Samarqand. 2019 y.
2. O'zbekiston Xalqlari Tarixi. Toshkent. 1992-yil.
3. H. Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati. T. 1996-yil.
4. A. Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. T. 2017-yil.